



**YEVROPA ITTIFOQINING
MARKAZIY OSIYO BO‘YICHA
YANGI STRATEGIYASI (2019)**

Yevropa Ittifoqining rasmiy qonunchilik hujjatlari bazasi (<https://eur-lex.europa.eu>)da e'lon qilingan fransuz tilidagi matndan tarjima qilindi ([https://eur-lex.europa.eu/legal-content/FR/TXT/PDF/?uri=CELEX: 52019JC0009&qid=1576679616586&from=FR](https://eur-lex.europa.eu/legal-content/FR/TXT/PDF/?uri=CELEX:52019JC0009&qid=1576679616586&from=FR)).

Tarjimonlar: Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Roman-german tillari kafedrasini mudiri, filologiya fanlari nomzodi V. Matkasimova, yuridik fanlar nomzodi, dotsent H. Yunusov

Tahrir hay'ati: yu.f.d., prof. G. Ismailova, R. Ernazarov

Tarjima Toshkent Jan Mone nomidagi Yevropa tadqiqotlari bo'yicha ilg'or tajriba markazi (Tashkent Jean Monnet Centre of Excellence for European studies) loyihasi doirasida amalga oshirildi hamda loyihaning mualliflik huquqi ob'ekti hisoblanadi.

@Toshkent Jan Mone nomidagi Yevropa tadqiqotlari bo'yicha ilg'or tajriba markazi loyihasi, 2022

@Tashkent Jean Monnet Centre of Excellence for European studies Project, 2022





**Yevropa Ittifoqi
Kengashi**

**Bryussel,
2019 yil 17 iyun
(Asli Ingliz tilida)**

10221/19

COEST 139

MUHOKAMALAR NATIJASI

Qayerdan: Kengashning Bosh kotibiyati

Qachon: 2019 yil 17 iyun

Kimga: Vakolatxonalarga

Dastlabki hujjatning raqami: 10101/19

Mavzu: Markaziy Osiyo bo'yicha Yangi strategiya yuzasidan Kengash xulosalari

Vakolatxonalar quyida ilova qilingan Markaziy Osiyo bo'yicha Yangi strategiya yuzasidan Kengash xulosalarini (Tashqi ishlar bo'yicha) Kengashning 2019 yil 17 iyundagi matni asosida qabul qiladilar.

Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha Yangi strategiyasi yuzasidan Kengash xulosalari

1. Kengash Yevropa Ittifoqi va Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston hamda O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlar 2007 yilda YeIning Markaziy Osiyo bo'yicha birinchi Strategiyasi qabul qilinganidan beri mustahkamlanib borayotganini olqishlaydi. O'zaro bog'liqlik va aloqadorlik kuchayib borayotgan dunyoda Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo chuqur o'zaro manfaatlar asosida bog'langan va hozirga kelib har qachongidan ham yaqin hamkorga aylangan. Kengash Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo o'rtasidagi sherikchilikni rivojlantirish uchun Markaziy Osiyodagi ijobiy o'zgarishlar tufayli yuzaga kelgan ulkan imkoniyatlarni alohida ta'kidlaydi.

2. Kengash Oliy vakil va Yevropa Komissiyasining "Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo: yanada kuchliroq sherikchilik uchun yangi imkoniyatlar" deb nomlangan Qo'shma Kommunikatsiyani qo'llab-quvvatlaydi. Mazkur hujjat Kengashning ushbu xulosalari bilan birgalikda Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo davlatlari bilan kelgusi yillardagi aloqalari uchun yangi siyosiy poydevor yaratadi.

3. Kengash Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha yangi Strategiyasini maqsadli va aniq yo'naltirilgan tarzda amalga tatbiq etishning muhimligini alohida ta'kidlaydi. Yangi strategiya YeI va Markaziy Osiyo uchun fuqarolarning o'zaro manfaatlari yo'lida barqaror va uzoq muddatli sheriklik o'rnatishga xizmat qiluvchi bebaho imkoniyatdir. Kengash Markaziy Osiyo mamlakatlarini ushbu maqsad yo'lida YeI bilan hamkorlik qilishga chaqiradi.

4. Kengash Yevropa Ittifoqining yangi Strategiyasidagi Markaziy Osiyoda barqarorlik, farovonlik va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan yangicha yondashuvlarni olqishlaydi.

5. Kengash mintaqaning manfaatdor davlatlari bilan ko'p maqsadli, keng ko'lamlil va o'zaro manfaatli Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik bitimlari (KShHB)ni tuzish hamda amalga oshirishga sodiqligini yana bir bor ta'kidlaydi. Bunday yangi avlod shartnomalari Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bilan munosabatlarining poydevori bo'lib xizmat qiladi. Kengash Yevropa Ittifoqining mintaqa bilan aloqalari ko'lami Markaziy Osiyoning har bir davlatining demokratiya, inson huquqlari, qonun ustuvorligi va sud hokimiyati mustaqilligini isloh qilish hamda mustahkamlashga, shuningdek, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiya qilish, jumladan, xususiy sektorni, ayniqsa, bozor iqtisodiyoti

sharoitida kichik va o'rta korxonalarni qo'llab-quvvatlashga tayyorligiga bog'liq ekanligini yana bir bor takrorlaydi.

6. Kengash Yevropa Ittifoqining mintaqaviy hamkorlikni qo'llab-quvvatlashga bo'lgan irodasini eslatib o'tadi. O'zlariga mos sur'atda mintaqadagi muloqot va hamkorlikni rivojlantirish uchun eng yaxshi tuzilmalar va mexanizmlar tanlashni Markaziy Osiyo mamlakatlarining o'zlariga havola qilgan holda YeIning ko'p mamlakatli dasturlari va mintaqalararo aloqalari Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikning olg'a siljishiga yordam beradi.

7. Markaziy Osiyo mamlakatlarining Afg'oniston uchun qaratilgan va Afg'oniston ishtirokidagi tinchlik jarayonini qo'llab-quvvatlashdagi muhim rolini e'tirof etib hamda YeIning Afg'oniston bo'yicha strategiyasiga muvofiq tarzda Kengash barqaror rivojlanish va inklyuziv tinchlik jarayoniga birgalikda ko'maklashish yo'lida Markaziy Osiyo mamlakatlari va Afg'oniston o'rtasidagi siyosiy va iqtisodiy hamkorlikni yanada rag'batlantirishning ahamiyatini urg'ulaydi. Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Janubiy Osiyo o'rtasidagi chuqur bog'liqlik mazkur keng hududli mintaqaning tinchligi, farovonligi va barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

8. YeIning Strategiyasi Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan uchinchi tomonlarni istisno qilmaydigan (non-exclusive partnership) sheriklikni o'rnatishga qaratilgan. Yevropa Ittifoqi xalqaro tashkilotlar, xususan, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YeXHT), Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) va Yevropa Kengashi, shuningdek, uchinchi davlatlar bilan, agar ularning ishtiroki YeI va uning Strategiyasining umumiy maqsadlariga yordam bergan taqdirda, birgalikda harakat qiladi.

9. Kengash YeI va Markaziy Osiyo o'rtasida kelgusidagi hamkorlik Markaziy Osiyo mamlakatlarining va jamiyatlarining, shuningdek, butun mintaqaning suvereniteti hamda bardoshlilikini ta'minlashga qaratilishi lozimligini urg'ulaydi. Davlat organlarining hisobdorligini kuchaytirish va korrupsiyaga qarshi kurash, fuqarolar xavfsizligini yaxshilash, iqlim o'zgarishi va atrof-muhitning ifloslanishiga qarshi kurashish, uran qazib olingan eski quduqlarning asoratlarini tugatish, biologik xilma-xillik va suv zaxiralarini asrash bo'yicha sa'y-harakatlar faqat jadallashtirishgan muloqot va kuchaytirilgan hamkorlik orqaligina muvaffaqiyat qozonadi. Yevropa Ittifoqi transchegaraviy suv zaxiralarini boshqarish sohasida yanada yaqinroq hamkorlikka chaqiradi hamda bu borada Xalqaro Orolni qutqarish jamg'armasining rolini, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya mintaqaviy markazining tashabbuslarini olqishlaydi.

10. Qonun ustuvorligi, inson huquqlari va asosiy erkinliklari, jumladan, soʻz va uyushmalarga birlashish erkinligi, fuqarolik jamiyati va inson huquqlari himoyachilari uchun qulay muhit yaratish, ayollar va bolalar huquqlarini himoya qilish va ragʻbatlantirish, shuningdek, XMTning Adolatli globallashtirish yoʻlida mehnatga munosib haq toʻlash Kun tartibini qoʻllab-quvvatlash YeI va Markaziy Osiyo aloqalarining asosi boʻlib qolishi lozim. YeI va Markaziy Osiyo mamlakatlari erkaklar va ayollar oʻrtasidagi tenglikni taʼminlash va ragʻbatlantirishni davom ettirishlari, ayollarning ijtimoiy va iqtisodiy hayotdagi ishtirokini kuchaytirishlari zarur.

11. Kengash, ayniqsa, KShHB doirasida migratsiya va mobillik sohasida hamkorlikni kuchaytirishning ahamiyatini, shuningdek, buzgʻunchi ekstremizm, radikallashtirish, terrorizm, kibor va gibridda tahdidlar, ommaviy qirgʻin qurollari va ularni tashib berish vositalarining tarqalishi kabi umumiy xavfsizlikka tahdidlarga qarshi davomli hamkorlikni ragʻbatlantirish va muloqotni kuchaytirish zaruratini taʼkidlaydi. Kengash radikallashtirishga olib boruvchi uning ijtimoiy-iqtisodiy sabablarini oldini olishning muhimligini urgʻulaydi. Kengash inqirozni boshqarish, xavfsizlik sohasini boshqarish va isloh qilish boʻyicha hamkorlikni ragʻbatlantiradi. Kengash mintaqada, Afgʻonistonni ham nazarda tutgan holda, chegaralarni boshqarish boʻyicha izchil hamkorlikni mintaqada savdo-sotiqni yengillashtirish, noqonuniy odam, giyohvand moddalar va tovarlar savdosiga qarshi kurashish va migratsiya oqimini nazorat qilish yoʻlidagi YeIning ustuvor yoʻnalishi deb hisoblaydi.

12. Kengash YeI va Markaziy Osiyo mamlakatlarining sherikchilikni farovonlik istiqboli uchun yoʻnaltirish yoʻlida hamkorlikni davom ettirishlari lozimligini urgʻulaydi. Savdo boʻyicha kompleks normalar, jumladan Imtiyozlarning umumlashtirilgan tizimi kabi amaldagi savdo instrumentlaridan samarali foydalanishni oʻzida mujassam etgan KShHBning tuzilishi va amalga kiritilishi YeI va Markaziy Osiyo mamlakatlari oʻrtasidagi savdo va sarmoyalar oqimini kengaytiradi. KShHB milliy huquqiy tartibga solishni Yevropa Ittifoqi va xalqaro standartlar bilan muvofiqlashtirish va moslashtirishga yordam beradi, oʻzaro bozorlarga kirishni osonlashtiradi, intellektual mulk huquqi va geografik maʼlumotlarni muhofaza qilishga koʻmaklashadi. Tadbirkorlarning yuzma-yuz muloqoti orqali Markaziy Osiyoda biznes va sarmoya uchun ochiq, sogʻlom, xavfsiz va qulay muhitni yaratish muhimdir. Kengash, shuningdek, xizmat koʻrsatishni yanada rivojlantirish, infratuzilmalarni modernizatsiya qilish va qishloq xoʻjaligi sektorini qoʻllab-quvvatlashning muhimligini taʼkidlaydi.

13. Yevropa-Osiyo bogʻliqligini rivojlantirish yoʻlidagi global saʼy-harakatlarda Markaziy Osiyoning strategik rolini eʼtirof etib va, oʻz navbatida, bu saʼy-harakatlarning mintaqa uchun manfaatli ekanligiga eʼtibor qaratgan holda Kengash barqaror, koʻp tomonlama va qonuniylikka asoslangan bogʻliqlikni

rag'batlantirish yo'lida Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan kuchaytirilgan hamkorlikka umid qiladi. YeIning Yevropa va Osiyo bog'liqligi bo'yicha Strategiyasiga muvofiq, Kengash, zarur bo'lganda, Markaziy Osiyo davlatlari bilan sifatli infratuzilmani rivojlantirish, Markaziy Osiyoda va u bilan iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy va ekologik barqarorlikni oshirish hamda tovarlarning erkin tranzitini ta'minlash yo'lida barqaror bog'liklik uchun sherikchilik o'rnatishga chorlaydi. Kengash Markaziy Osiyoni Sharqiy sherikchilik mamlakatlari va Afg'oniston bilan bog'lashga bo'lgan intilishlarni qo'llab-quvvatlaydi. Kengash kengaytirilgan Trans-evropa transport tarmog'ini Markaziy Osiyo transport tarmoqlari bilan bog'lashga qaratilgan sa'y-harakatlarni rag'batlantiradi, energiya va transport sohasida qo'shma loyihalarni amalga tatbiq etish asosida o'zaro manfaatdorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlaydi va bunda Qora va Kaspiy dengizi imkoniyatlaridan to'laqonli foydalaniladi. Transport o'sib boruvchi ko'p vositali sektorga aylanayotgan ekan, mavjud va yangi transport tarmoqlarini takomillashtirish va yaxshilash uchun yangi imkoniyatlar paydo bo'lar ekan, Shimol-Janub, Sharq-G'arb temir yo'l tarmoqlari kelajakda muhim rol o'ynay boshlaydi. Kengash raqamli aloqa va elektron hukumat sohasida hamkorlik zarurligini uqtiradi. Kengash Parij bitimiga muvofiq iqlim o'zgarishlariga qarshi samarali choralar ko'rish va mintaqaning past uglerodli iqtisodiyotga o'tishini qo'llab-quvvatlash muhimligini ta'kidlaydi. YeI Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan qayta tiklanadigan energiya va energiya samaradorligi, shuningdek, adolatli raqobat sharoitida elektr energiyasiga o'zaro ulanishlarni osonlashtirish bo'yicha hamkorlikni faollashtiradi. Yuzma-yuz insoniy aloqalar ham Yevropa Ittifoqi-Markaziy Osiyo sherakchiligini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

14. Kengash Markaziy Osiyoda taraqqiyot, iqtisodiy diversifikasiya va adolatli mehnat munosabatlarini yaratish, shuningdek, jamiyatdan ajralib qolishni oldini olish va ekstremizmga sabab bo'luvchi radikallashtiruvchi xavfini, ayniqsa, yoshlar o'rtasida kamaytirish maqsadida ta'limni kelgusida ham qo'llab-quvvatlash muhimligini ta'kidlaydi. Kengash oliy ta'lim, kasb-hunar ta'limi va kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilashga, shuningdek, ta'lim tizimi va mehnat bozori o'rtasidagi uyg'unlikni, jumladan, raqamli ta'limni rag'batlantirishga qaratilgan islohotlarni qo'llab-quvvatlaydi. Kengash akademik almashinuv dasturlarini yanada rivojlantirish, mintaqaviy hamkorlik va uning doirasidagi mobillikni qo'llab-quvvatlashga bo'lgan istaklarini yana bir bor ta'kidlaydi. Kengash YeI va Markaziy Osiyo oliy o'quv yurtlari o'rtasidagi hamkorlikni, shuningdek, talabalar, olimlar va tadqiqotchilarni almashishni rag'batlantiradi. Ijtimoiy va iqtisodiy manfaatlarni ta'minlash yo'lida madaniyat va turizm sohasidagi hamkorlik kuchaytirilishi lozim.

15. Markaziy Osiyoning bir qator davlatlari taraqqiyotning yuqori darajasiga erishgan bo'lsalar-da, mintaqada rivojlanish odimlarini mustahkamlash uchun iqtisodiy taraqqiyotning yangi modellari, tarkibiy islohotlar, iqtisodiy diversifikatsiya va ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish talab etiladi. 2030

yilgacha mo'ljallangan Rivojlanish Kun tartibini amalga tatbiq etish barqaror taraqqiyotga erishish uchun birgalikdagi sa'y-harakatlarga salmoqli imkoniyatlarni taqdim etadi.

16. Kengash YeIning Markaziy Osiyo bo'yicha yangi Strategiyasini YeIning mintaqaga ko'rsatadigan yordami, shu jumladan Yevropa investitsiya bankining (YeIB) barqaror investitsiyalarini dasturlash qo'llanmasi deb biladi hamda istiqboldagi hamkorlik Markaziy Osiyo mamlakatlarida davom etayotgan islohotlarning keyingi har qanday bosqichi ehtiyojlari uchun javob berishga tayyor turishi kerak deb hisoblaydi. Kengash moliyaviy va texnikaviy hamkorlikning kelgusi dasturlarida Strategiyani amalga tatbiq etish uchun talab etiladigan yetarli mablag'ga ehtiyojni alohida ta'kidlaydi. Kengash natijalarni yuqori darajaga ko'tarish uchun qo'shma dasturlashning hamda Komissiya va A'zo davlatlarning ikki tomonlama va mintaqaviy dasturlari o'rtasida yaxlitlik va bir-birini yaqindan to'ldirishning muhimligini urg'ulaydi. Shu ma'noda, Kengash Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining mintaqadagi rolining ahamiyatini e'tirof etadi.

17. Kengash Oliy vakilni tashqi siyosatning dolzarb asosiy ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlikni yanada kuchaytirishga chaqiradi. Kengash Markaziy Osiyoning global muammolarni hal qilishda qo'shadigan hissasini ta'kidlaydi. Iqlim o'zgarishi sohasidagi hamkorlik Parij bitimini to'liq va samarali amalga tatbiq etishga qaratilgan bo'lishi shart. YeI va Markaziy Osiyo davlatlari qonuniylikka asoslangan xalqaro tartiblarga nisbatan birgalikdagi ma'suliyatga muvofiq holda Birlashgan Millatlar Tashkiloti, YeXHT va Jahon Savdo Tashkiloti (JST) kabi ko'p tomonlama forumlarda yanada yaqinroq hamkorlik qilishlari lozim. Xususan, Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyo davlatlarining JSTga a'zo bo'lishlarini qo'llab-quvvatlaydi va bu borada yetarli darajada yordam ko'rsatadi.

18. Kengash YeI institutlari va A'zo davlatlarning mintaq bilan aloqalarida yanada mustahkam hamjihatlikdagi yondashuvlarini rag'batlantiradi. Kengash Turkmanistonda YeI Delegasiyasining ochilishini olqishlaydi.

19. YeIning Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili mintaqada YeIning samaradorligi va nufuzini oshirish yo'lida Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan oliy darajadagi muloqot va aloqa bo'g'ini bo'lib xizmat qiladi.

20. Kengash YeI-Markaziy Osiyo sherikchiligi hukumatlararo aloqalar bilan cheklanib qolmasdan, barcha jabhalarda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirok etishini nazarda tutadi. Kelgusidagi munosabatlar barcha manfaatdor tomonlarning, shu jumladan parlament a'zolari, xususiy sektor, tahliliy markazlar, ilmiy doiralar va yoshlarning ishtiroki negizida qurilishi lozim.

21. Kengash YeIning, uning strategiyasining amalga tatbiq etilishining va uning mintaqa uchun taqdim etishi mumkin bo'lgan aniq yutuqlarining namoyon bo'lishi uchun YeIning Markaziy Osiyodagi strategik aloqalarini kuchaytirish zarurligini alohida ta'kidlaydi. Shu munosabat bilan, Kengash ichki va tashqi bosimlardan xoli muhitning mustaqil ommaviy axborot vositalari uchun muhimligini va uning rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda Yevropa Ittifoqi rolining ahamiyatini alohida qayd etadi.

22. Kengash Oliy vakil va Yevropa Komissiyasini A'zo davlatlar hamda Markaziy Osiyoning sherik mamlakatlari bilan hamkorlikda ushbu Qo'shma Kommunikatsiyada belgilangan aniq ustuvor yo'nalishlarni amalga tatbiq etish yo'lida keyingi qadamlarni tashlashga chaqiradi.



YEVROPA
KOMISSIYASI

ITTIFOQNING
TASHQI ISHLAR VA
XAVFSIZLIK
SIYOSATI BO‘YICHA
OLIV VAKILI

Bryussel, 15.05.2019
Qo‘shma (2019) 9 yakuniy

**YEVROPA PARLAMENTI VA KENGASHIGA QO‘SHMA
KOMMUNIKATSIYA**

**YeI va Markaziy Osiyo: yanada kuchliroq sherikchilik uchun yangi
imkoniyatlar**

Yevropa Parlamenti va Kengashiga Qo‘shma Kommunikatsiya

YeI va Markaziy Osiyo: yanada kuchliroq sherikchilik uchun yangi imkoniyatlar

KIRISH.

Yevropa Ittifoqi (YeI) va Markaziy Osiyodagi besh respublika (Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekiston) muhim **o‘zaro manfaatdorlikka asoslangan uzoq yillik munosabatlar tarixiga** ega.

*Elning 2007 yilgi Markaziy Osiyo bo‘yicha strategiyasi*¹ Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo o‘rtasida hamkorlikning misli ko‘rilmagan darajaga yetishiga yordam berdi. **Yevropa va Osiyo chorrahasida joylashgan Markaziy Osiyoning strategik geografik o‘rni, mintaqaning Yevropa Ittifoqi energiya importidagi ulushi, 70 millionlik iste‘mol bozori, shuningdek, YeIning mintaq xavfsizligi sohasidagi manfaatlari** Markaziy Osiyoning YeI uchun tobora muhim sherikka aylanishiga sabab bo‘ldi.

Markaziy Osiyoda sodir bo‘layotgan bugungi kundagi o‘zgarishlarning ayrim jihatlari YeI-Markaziy Osiyo o‘rtasidagi sherikchilikni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Mintaqadagi **islohotlar jarayoni** Yevropa Ittifoqining siyosiy e‘tirofiga sazovor bo‘lishi bilan bir qatorda modernizasiyalash jarayonini YeI tomonidan qo‘llab-quvvatlanishiga yo‘l ochdi. **Mintaqaviy hamkorlikning yangi sur‘atlari** 2018 yilning mart oyida Ostonada bo‘lib o‘tgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining birinchi norasmiy sammitida o‘z aksini topdi. Sammitda umumiy muammolarni birgalikda hal qilishda Yevropa Ittifoqi tajribasining muhimligi ta‘kidlandi. **Yevropa va Osiyo o‘rtasidagi bog‘liqlikni** qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan yangi sa‘y-harakatlar Evropa Ittifoqining barqaror aloqalar o‘rnatishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirdi. Markaziy Osiyo va **Afg‘oniston** o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash Yevropa Ittifoqining mamlakatda tinchlikni ta‘minlashga qaratilgan harakatlari uchun yangi o‘lchovlarni belgilab berdi. Bundan tashqari, Markaziy Osiyo davlatlarining **global va mintaqaviy jarayonlarda** yanada faol ishtirok etish istagini ifodalagan yangi ambitsiyalari Yevropa Ittifoqi bilan umumiy maqsadlar uchun hamkorlik qilish imkoniyatlarini oshirdi.

YeIning mintaqadagi ishtiroki mamlakatlarning bir qator **salmoqli muvaffaqiyatlariga** asoslanadi. Markaziy Osiyo mamlakatlari Yevropa Ittifoqini

¹ The EU and Central Asia: Strategy for a New Partnership, Council of the European Union. Document 10113/07, May 31, 2007.

yetakchi donor, islohotlar va iqtisodiy o'tish jarayonida ishtirok etuvchi sherik sifatida ko'rishlari mumkin. Shuningdek, YeI mintaqa davlatlarining jahon savdo tizimiga integrasiyalashuviga xizmat qilishi bilan birgalikda samarador investitsiyalar va zamonaviy texnologiyalar manbasi hamda mintaqa davlatlari o'zaro hamkorligining homiysi bo'la oladi.

Ushbu Qo'shma Kommunikatsiya **Markaziy Osiyoning barqaror iqtisodiy va siyosiy, rivojlanayotgan va o'zaro chambarchas bog'langan mintaqaga aylanishini ko'zda tutuvchi mustahkam, zamonaviy va uchinchi tomonlarni istisno qilmaydigan (non-exclusive partnership) sherikchilikni** o'rnatishni maqsad qilgan. U YeIning mintaqadagi oldingi yillardagi ishtirokining tajribasidan kelib chiquvchi saboqlarga tayanadi hamda boshqa quyidagi bir qator strategiyalarni ham e'tiborga oladi: *Yevropa Ittifoqining tashqi va xavfsizlik siyosati uchun Global strategiyasi*², *Taraqqiyot bo'yicha yangi Yevropa Konsensusi*³, *Yevropa va Osiyoni bog'lash bo'yicha Yevropa Ittifoqi strategiyasi*⁴ va *Yevropa Ittifoqining Afg'oniston bo'yicha*⁵ *strategiyasiga tayanadi hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030 yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlari Kun tartibi*⁶.

Yevropa Ittifoqi strategiyasi **o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi uchta ustuvor yo'nalishga** urg'u beradi:

➤ **Bardoshlilik yo'lida sherikchilik**

YeI Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan ularning ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlari va xavfsizligiga ta'sir qiladigan qiyinchiliklarni oldindan ko'rish va ularni bartaraf etish, islohotlar va modernizasiyalashda ishtirok etish uchun sherikchilik qiladi.

YeI demokratiya, inson huquqlari va qonun ustuvorligini targ'ib qiladi, iqlim bo'yicha Parijda qabul qilingan majburiyatlarni bajarish va transchegaraviy ekologik muammolarga qarshi kurashish hamda ularni muammo emas, balki imkoniyatlarga aylantirish uchun hamkorlikni faollashtiradi. Shuningdek, migrasiya sohasidagi hamkorlik ham jadallashadi.

➤ **Farovonlik yo'lida sherikchilik**

Yevropa Ittifoqi raqobatbardosh xususiy sektorni rivojlantirishni rag'batlantirish, sog'lom va shaffof sarmoyaviy muhitni yaratish orqali Markaziy

² Shared vision, Common Action: A Stronger Europe. A Global Strategy for the European Union's Foreign and Security Policy, June 2016.

³ New European Consensus on Development, "Our world, our dignity, our future", June 2017.

⁴ Connecting Europe and Asia – Building blocks for an EU Strategy – Council conclusions, 13097/18 of 15 October 2018.

⁵ Afghanistan – Council conclusions, 13098/17 of 16 October 2017.

⁶ Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development, Resolution adopted by the United Nations General Assembly on 25 September 2015.

Osiyo davlatlarining yuqori o‘shish salohiyatini yuzaga chiqarish uchun sherikchilik qiladi. YeI yoshlarga alohida e‘tibor qaratgan holda ilm-fan sohalari, xususan tadqiqot va innovasiyalar sohalarida hamkorlikka chorlaydi. U mintaqalararo savdo va sarmoyalar uchun tizimli cheklovlarni olib tashlash, Jahon savdo tashkiloti (JST)ga a‘zo bo‘lmagan Markaziy Osiyo mamlakatlarining nomzodligini qo‘llab-quvvatlash va barqaror aloqalarni saqlab turishga harakat qiladi.

➤ Yanada jipslikda ishlash

Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyo davlatlari bilan siyosiy muloqotlarni faollashtirish va fuqarolik jamiyatining ishtiroki uchun imkoniyatlar yaratish orqali sheriklikni mustahkamlash bo‘yicha ish olib boradi. YEI mintaqaning rivojlanishida uning yetakchi hamkori sifatidagi rolini davom ettiradi. Bu sheriklikning mintaq va uning fuqarolari uchun qanday afzalliklarga ega ekanligini namoyon qilish uchun xalq diplomatiyasini mustahkamlaydi.

Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyodagi barcha sheriklarining intilishlari va manfaatlarini hurmat qilgan, shuningdek, har bir mamlakatdagi vaziyatning o‘ziga xosligini hisobga olgan holda mintaq mamlakatlari bilan hamkorlikni chuqurlashtirishga intiladi. YeI Ittifoqning umumiy maqsadlari va amaldagi strategiyalarini amalga oshirish uchun uchinchi dunyo mamlakatlari va xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda ishlashga intiladi. Markaziy Osiyo davlatlari bilan imzolangan va ayrimlari bilan imzolanishi kutilayotgan **ikki tomonlama yangi avlod Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik bitimlari**⁷ Yevropa Ittifoqining mintaqadagi ishtirokining asosi bo‘lib qolaveradi. Mazkur Qo‘shma Kommunikatsiya Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi aloqalarni yuqori bosqichga olib chiqish uchun foydali bo‘lgan **YeI siyosatining keng kamrovli maqsadlari va vositalarni** ishga solishni ko‘zda tutgan. Shuningdek, u YeIning taraqqiyot yo‘lida hamkorlik va yordamini **rejalashtirish uchun dasturilamal** bo‘lib xizmat qiladi.

Tarmoqlararo ustuvorlik: Markaziy Osiyo ichidagi mintaqaviy hamkorlikka sarmoya kiritish.

Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyoni raqobat va adovat emas, balki hamkorlik va o‘zaro bog‘liqlik tamoyillari asosida qurilgan mintaqaga aylantirishdan

⁷ Yevropa Ittifoqi Qozog‘iston bilan KShHBni imzolagan. KShHB bo‘yicha Qirg‘iziston va O‘zbekiston bilan muzokaralar davom etmoqda. Tojikiston KShHB bo‘yicha muzokaralarga qo‘shilishga qiziqish bildirmoqda. KShHBlar Qozog‘iston va Qirg‘iziston a‘zo bo‘lgan Erkin savdo ayirboshlash bitimlari va Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi kabi boshqa hamkorlik tashabbuslarida ishtirok etishni istisno etadigan asos yaratmaydi.

manfaatdor. YeI mintaqada o'sib borayotgan hamkorlikning yangi imkoniyatlariga sarmoya kiritishga qat'iy qaror qilgan.

Mintaqaviy hamkorlik Markaziy Osiyo davlatlariga o'zaro bog'liqlikni muvozanatda saqlab turish, zaif tomonlar va umumiy muammolarning oldini olish, iqtisodiy o'sish salohiyatidagi to'siqlarni bartaraf etish hamda xalqaro munosabatlardagi ta'sirini kuchaytirishga, mustaqillik va o'zligini saqlab qolishga imkon berishi kerak. Bu davlatlar o'z xohishlariga ko'ra mintaqaviy hamkorlikning qaysi shaklini ilgari surishsa, Yevropa Ittifoqi bu **jarayonlarni** integrasiyalashuv mexanizmlari va yanada chambarchas bog'liqlikni o'z ichiga oluvchi boy tajribasi orqali **qo'llab-quvvatlaydi**.

Yevropa Ittifoqi – Markaziy Osiyo muloqotlari va YeI tomonidan moliyalashtiriladigan mintaqaviy dasturlar atrof-muhit, suv, iqlim o'zgarishi va barqaror energiya, ta'lim, qonun ustuvorligi, muntazam aloqalar, giyohvandlikka qarshi kurash siyosati, xavfsizlik va radikallashtirishning oldini olish hamda chegara boshqaruvi va mintaqalararo savdoni osonlashtirish kabi sohalarda oldindan kelishilgan yechimlarni ilgari suradi.

Agar mazkur hamkorlik Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo uchun birdek manfaatli bo'lsa, mintaqada davlatlari bilan muloqot va hamkorlik dasturlari **qo'shni davlatlarga**, xususan, **Sharqiy sherikchilik** davlatlari, **Afg'oniston** va boshqalarga ham tatbiq etilishi mumkin. Markaziy Osiyo va Afg'oniston xavfsizlik va barqarorlik, suvdan oqilona foydalanish hamda samarali hamkorlik kabi sohalarda umumiy manfaatlarga ega. Afg'onistonning YeI – Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi aloqalarda yanada faol ishtirokini ta'minlash, Afg'oniston va Markaziy Osiyo mamlakatlari hamkorlari ishtirokida uch tomonlama loyihalarni qo'llab-quvvatlash ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda.

1. BARDOSHLILIK YO'LIDA SHERIKLIK

Markaziy Osiyo davlatlari va jamiyatlarida barqarorlikni mustahkamlash YeIning manfaatlari doirasiga kiradi. Bu maqsadga erishish uchun mazkur davlatlarga qaratilgan tashqi va ichki bosimlarni aniqlash va oldini olish, islohotlar jarayonida ishtirok etish va globallashtirish, yuqori demografik o'sish, iqlim o'zgarishlari, atrof-muhit zaharlanishi, suv va energiya manbalarini ortiqcha ekspluatatsiya qilish hamda ishchi kuchining chiqib ketishi va xavfsizlikka bo'lgan yangi tahdidlar natijasida yuzaga kelayotgan qiyinchiliklarni yengib o'tish qobiliyatini mustahkamlash zarur. O'zaro daxldorlik hissi tobora ortib borayotgan va umumiy yashash tarzining yaxshilanishiga intilayotgan Markaziy Osiyo yoshlari uchun yangi istiqbollarni ochish bilan bir qatorda xotin-qizlar huquqlarini kengaytirish YeI uchun ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda.

1.1. Demokratiya, inson huquqlari va qonun ustuvorligini ilgari surish

Demokratik institutlarni mustahkamlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini kengaytirish, yanada inklyuziv siyosiy va iqtisodiy boshqaruv tuzilmalarini yaratish, qonun ustuvorligini ta'minlash, hukumat institutlarining javobgarligini oshirish va inson huquqlarini hurmat qilishga erishish Markaziy Osiyo mintaqasida muvaffaqiyatli barqaror rivojlanishning muhim shartidir. Shu tariqa, inson huquqlariga hurmat Yevropa Ittifoqining mintaqada davlatlari bilan ikki tomonlama munosabatlarining muhim elementi bo'lib qoladi.

Yevropa Ittifoqi **xalqaro standartlarga muvofiq** so'z erkinligi (jumladan, ommaviy axborot vositalari plyuralizmi), uyushmalarga uyushish erkinligi, ayollar huquqlari, bolalar va ozchilik huquqlari, kamsitishga qarshi kurash, shuningdek qiynoqlarning oldini olish va ularga barham berish kabi sohalariga urg'u bergan holda **inson huquqlarini qo'llab-quvvatlashni** davom ettiradi. Shuningdek, YeI sheriklik aloqalarini, jumladan, *“Inson huquqlari sohasida yaxshi xotiralar” (Good Human Rights Stories Initiative)* tashabbusi doirasida hamkorlikni yo'lga qo'yishga intiladi.

Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyo davlatlarini **BMTning shartnomaviy tuzilmalari, agentliklari va maxsus proseduralari** bilan yanada yaqinroq hamkorlikka undaydi. Bu esa, o'z navbatida, *Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha kengashi va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Uchinchi qo'mitasi* kabi **ko'p tomonlama inson huquqlari forumlarida** hamkorlikni osonlashtiradi. U mintaqadagi mamlakatlarga taqdim etilishi mumkin bo'lgan *Barqaror rivojlanish va oqilona boshqaruv uchun Maxsus rag'batlantirish tizimi (Special Incentive Arrangement for Sustainable Development and Good Governance) (GSP+)* dan foydalangan holda xalqaro inson huquqlari va mehnat huquqining asosiy standartlari bo'yicha yirik xalqaro konvensiya va qarorlarni ratifikatsiya qilish va amalga oshirishda hamkorlik qiladi. Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarning *Xalqaro jinoyat sudining Rim statutiga* qo'shilish uchun zarur bo'lgan qonuniy o'zgarishlarni kiritish tajribasi Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun foydali bo'lishi mumkin.

Hukumat qarorlarini qabul qilish jarayonida **fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki** Markaziy Osiyoda sodir bo'layotgan modernizatsiya jarayonlarining barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Yevropa Ittifoqi inson huquqlari himoyachilari, jurnalistlar, mustaqil kasaba uyushmalari va ish beruvchilar tashkilotlarining erkin va xavfsiz ishlashini ta'minlaydigan fuqarolik jamiyatiga qulay siyosiy va huquqiy muhitni yaratadi. Bu esa, o'z navbatida, fuqarolik jamiyati va barcha darajadagi rahbarlik organlari o'rtasida muloqot va hamkorlikni osonlashtiradi.

Yevropa Ittifoqi davlat institutlarining fuqarolar oldida hisobdorligini oshirish, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan **demokratiya, qonun ustuvorligi va oqilona boshqaruv** kabi qadriyatlarni rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlarini kuchaytiradi. YeI adolatli va oshkora saylov jarayonlarini qo'llab-quvvatlashda davom etadi. U adliya tizimining mustaqilligi va samaradorligini oshirish uchun sud-huquq sohalorida, xususan, Yevropa Kengashi tashkiloti bilan hamkorlikni kengaytiradi. Mintaqada keng tarqalgan holda qolayotgan **korrupsiyadan** qutulishni xohlovchi, o'z qonunchiligi va ma'muriy tizimiga kerakli o'zgartirishlar kiritishni va mustaqil nazorat organlarini kuchaytirishni istagan mamlakatlarga Ittifoq mazkur sohalardagi o'z tajribalaridan kelib chiqqan holda ko'mak beradi.

Ko'p sohalarda, radikallashuvdan tortib xususiy sektorni rivojlanishigacha bo'lgan sohalarda ijobiy ta'sirini hisobga olgan holda Yevropa Ittifoqi Birlashgan Millatlar Tashkilotining *ayollar, tinchlik va xavfsizlikka oid dasturini*, **gender tengligiga** erishish, shuningdek, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotda ishtirok etish salohiyati mintaqada deyarli sezilmay kelayotgan **xotin-qizlar imkoniyatlarini kengaytirish** tashabbusini ilgari suradi. "*Hamisha e'tibor ostida tashabbusi*" (*Spotlight Initiative*)⁸ bu borada muhim rol o'ynashi mumkin.

Mehnatni munosib rag'batlantirish va xalqaro mehnat standartlariga rioya qilish ustuvor vazifa bo'lib qoladi. Yevropa Ittifoqi *Xalqaro mehnat tashkilotining (XMT)* asosiy konvensiyalariga muvofiq so'nggi yillarda erishilgan yutuqlarni mustahkamlashga yordam beradi va XMTning mehnatni nazorat qilish, ishchilar salomatligi, xavfsizligi hamda mehnat sharoitlari to'g'risidagi konvensiyalarini ratifikasiya qilish va amalga oshirishga ko'maklashadi. *Yevropa Ittifoqi Birlashgan Millatlar Tashkilotining tadbirkorlik va inson huquqlari bo'yicha tamoyillariga* rioya etilishini rag'batlantiradi.

Bu borada, *Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti*⁹ bilan hamkorlik, jumladan, mahalliy darajada, muhim ahamiyat kasb etadi. Yevropa Ittifoqi YeXHT tamoyillari va majburiyatlariga rioya etilishini rag'batlantiradi, mustaqil institutlar, *YeXHT Demokratik institutlar va inson huquqlari byurosi*, Milliy ozchiliklar bo'yicha Oliy komissar va OAV erkinligi bo'yicha vakil bilan hamkorlikni kuchaytiradi va Markaziy Osiyo davlatlarini YeXHT bilan aloqalarini mustahkamlash va uning mintaqadagi dala missiyalarini qo'llab-quvvatlash borasida rag'batlantiradi.

⁸ Mazkur tashabbus xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikni yo'q qilishni maqsad qiluvchi YeI-BMT qo'shma tashabbusidir.

⁹ Markaziy Osiyoning barcha davlatlari YeXHTning a'zosisdir.

Nihoyat, Yevropa Ittifoqi *Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti* va XMT bilan sog‘lom biznes muhitini va munosib mehnat munosabatlarini qo‘llab-quvvatlash uchun hamkorlikni kuchaytiradi.

Bu sohada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan tashabbuslar quyidagilar:

- *YeI, Markaziy Osiyo va Sharqiy sherikchilik davlatlari orasida sud-huquq tizimi, mehnat huquqining asosiy me‘yorlari, adolatli boshqaruv, saylov va xotin-qizlar huquqlarini kengaytirish islohotlarini qo‘llab-quvvatlash uchun mintaqaviy dasturlardan foydalanish;*
- *Fuqarolik jamiyati faollari va inson huquqlari himoyachilari uchun inson huquqlari va ularni isbotlar orqali asoslab berishni o‘rgatish imkoniyatlarini taqdim etish va ular o‘rtasida mintaqaviy darajada, shuningdek, Yevropa Ittifoqi va Sharqiy sherikchilik mamlakatlaridagi hamkasblari bilan chegaralararo aloqalarni rivojlantirish;*
- *Mehnat standartlari, tadbirkorlik va inson huquqlari to‘g‘risida aniq muloqot o‘rnatish.*

1.2. Chegaralar xavfsizligini mustahkamlash, migrasiya va umumiy tahdidlarga qarshi birgalikda kurash yo‘lida hamkorlik qilish

Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo xavfsizlik sohasidagi azaliy hamkorlardir. *Yevropa Ittifoqi-Markaziy Osiyo – siyosiy va xavfsizlik bo‘yicha yuqori darajali doimiy uchrashuvlari* xavfsizlik muammolari va ularni hal qilishi mumkin bo‘lgan samarali siyosiy choralar borasida fikr almashish imkonini beradi. Yevropa Ittifoqi mintaqada xavfsizlik sohasida hamkorlik bo‘yicha **integrasiyalashgan yondashuvni** ilgari suradi va qashshoqlik, ijtimoiy diskriminasiya va marginalizasiya, kundalik siyosatda passiv ishtirok etish, institutsional zaiflik, korrupsiya va tabiiy resurslarni noto‘g‘ri boshqarishning asosiy sabablarini bartaraf etish bo‘yicha hamkorlikni kuchaytiradi. Fuqarolarning barqaror xavfsizligiga hissa qo‘shish uchun Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyo davlatlari bilan **xavfsizlik sohasini** muhokama qilishga e‘tibor qaratadi va mazkur sohadagi hisobdorlikni hamda undagi islohotlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan hamkorlikni e‘tirof etadi.

Iqlim o‘zgarishi va atrof-muhitning ifloslanishi mintaqa uchun tahdidlarni ko‘paytiruvchi omillar hisoblanadi. Shuning oqibatida, Yevropa Ittifoqi o‘zining strategik muloqotlari, mojarolarning oldini olish, insonparvarlik va taraqqiyparvarlik siyosatida hamda butun Markaziy Osiyo mintaqasida tabiiy falokatlar xavfini qisqartirish faoliyatida atrof-muhit, iqlim va xavfsizlik o‘rtasidagi uzviylikni mustahkamlashga harakat qiladi.

Terrorizm va buzg'unchi ekstremizm Markaziy Osiyoda bo'lgani kabi YeI da ham birdek muammo bo'lib qolmoqda. Ekstremizm va radikallashtirishni bartaraf etish, terrorizmni moliyalashtirish va terrorchi jangarilarning qaytishi yuzaga keltiradigan muammolarni yechishni ko'zda tutuvchi hamkorlik ustuvor vazifa bo'lib qoladi. Bu hamkorlik *YeI ning Markaziy Osiyo uchun* yangidan ta'sis etilgan va fuqarolik jamiyati institutlari bilan aloqada bo'ladigan, shuningdek, inson huquqlari tamoyillaridan kelib chiqib faoliyat ko'rsatuvchi *xavfsizlik va terrorizmga qarshi kurash eksperti* bilan birgalikda yanada rivojlantiriladi. Yevropa Ittifoqi ekstremizmning oldini olish, xususan, uni harakatlantiruvchi kuchlar bo'yicha tadqiqotlar, profilaktika choralari o'tkazish va ekstremizmga qarshi targ'ibotni amalga oshirish kabi sohalarda tajriba almashuvlarini qo'llab-quvvatlaydi. YeI *BMTning ekstremizmning oldini olishga qaratilgan yo'l xaritasiga* binoan, inson huquqlar va fuqarolik jamiyatini hurmat qilgan holda, shu bilan birgalikda, gender tengligi masalasini ham hisobga olib mahalliy aholining ekstremizmga nisbatan immunitetini kuchaytirishga harakat qiladi.

Mintaqada amalga oshirilgan oldingi dasturlardan chiqarilgan xulosalarga asoslanib, Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyo bilan **chegaralarni zamonaviy yaxlit boshqarish** bo'yicha hamkorlikni jadallashtiradi va Afg'onistonda mintaqaviy hamkorlikka qaratilgan sa'y-harakatlarni kuchaytiradi. YeI **uyushgan jinoyatchilik, migrantlar kontrabandasi, odam savdosi va giyohvand moddalar savdosiga qarshi kurashda** mintaqada hamkorlikni faollashtirishning yangi yo'llarini ochishga harakat qiladi. Shu bilan bir qatorda, giyohvand moddalarga qarshi kurashda kompleks va barqaror chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqishda hamkorlikni davom ettiradi.

Markaziy Osiyo mintaqasida migrasiya va chegaralar orqali erkin harakatlanishni takomillashtirish va Markaziy Osiyo fuqarolari bilan Yevropa Ittifoqi va boshqa sherik davlatlar fuqarolari o'rtasidagi xalqaro aloqalarni faollashtirish uchun qulay muhit yaratish maqsadida YeI inson huquqlari bo'yicha normalarga qat'iy rioya etgan holda asosiy e'tiborni **noqonuniy migrasiyaga qarshi kurashga** qaratadi. Bu chegaralarni boshqarish, noqonuniy muhojirlarni qayta qabul qilish va deportasiya qilinishi kutilayotgan shaxslarni qayta integratsiyalash, qonuniy migrasiya kanallarini qo'llab-quvvatlash va tegishli qonunchilikni yaratish maqsadida ta'lim, munosib mehnat sharoitlari va sifatli ish joylarini targ'ib qilish orqali odam savdosi qurbonlari va xalqaro himoyaga muhtoj shaxslarga samarali yordam bergan holda **noqonuniy migrasiyaning asosiy sabablarini bartaraf etish** bo'yicha hamkorlikni o'z ichiga oladi.

Shu maqsadda Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyo mamlakatlarini **milliy migrasiya siyosatlarini ishlab chiqish** va **mintaqaviy darajada hamkorlik qilishga**, Birlashgan Millatlar Tashkilotining rahbariy tamoyillariga muvofiq chegaralar orqali erkin harakatlanish hamda **migrasiyani ko'p tomonlama**

boshqarish bo'yicha hamkorlik qilishga undaydi. Shu bilan birga, Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan yuqorida nomi tilga olingan sohalarda, xususan, KShHB doirasida ikki tomonlama muloqot va hamkorlikni faollashtiradi.

Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyo davlatlari bilan ochiq, erkin va ishonchli **kibermakonni** qo'llab-quvvatlaydi va **kiberxavfsizlikni** mustahkamlaydi.

Yevropa Ittifoqi **kimyoviy qirg'in qurollarini tarqatmaslik, ikki maqsadli foydalanishni ko'zda tutuvchi mahsulotlarni eksport qilishni taqiqlash, yadroviy xavfsizlik va undan himoyalani**sh borasida mintaqa bilan hamkorlikni davom ettiradi, *Markaziy Osiyodagi kimyoviy, biologik, radiologik va yadroviy xavflarni yumshatish bo'yicha ilg'or tajribalar markazidan to'liq foydalanadi.* U Markaziy Osiyo davlatlari bilan **inqirozlarni boshqarish va tinchlikni saqlash sohalari**da yaqinroq muloqotni boshlaydi.

Shuningdek, **Shanxay hamkorlik tashkiloti** va **Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti** kabi mintaqaviy xavfsizlik tuzilmalaridagi o'zgarishlarni kuzatib borish Yevropa Ittifoqi manfaatlariga mos keladi.

Bu sohada amalga oshirilishi lozim bo'lgan tashabbuslar:

- *YeIning yaqinda ta'sis etilgan xavfsizlik va terrorizmga qarshi kurash bo'yicha Markaziy Osiyo uchun eksperti hamda Yevropa Ittifoqi-Markaziy Osiyo oliy darajadagi siyosiy va xavfsizlik muloqoti yordamida keng ko'lamli xavfsizlik kun tartibi, xususan, xavfsizlik sohasini isloh qilish va boshqarish, gibril tahdidlar va suv/xavfsizlik aloqalari bo'yicha amaliy hamkorlikni kuchaytirish;*
- *Bu sohadagi xalqaro majburiyatlarga muvofiq tajriba almashishga ko'maklashish va transchegaraviy hamkorlikni mustahkamlash maqsadida ekstremizmning oldini olish va terrorizmga qarshi kurash masalalari bo'yicha Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo ekspertlarining maxsus uchrashuvlarini tashkil etish;*
- *Markaziy Osiyoda transmilliy tahdidlarning oldini olish va ularga qarshi kurashda YeXHT bilan hamkorlikni va birgalikdagi harakatlarni kuchaytirish;*
- *Giyohvand moddalarga bo'lgan talabni pasaytirish bo'yicha milliy siyosatlarni yanada kuchaytirish, giyohvand moddalarni noqonuniy yetkazib berish va ular bilan bog'liq uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun narkotik moddalarni nazorat qilish siyosati bo'yicha hamkorlikni davom ettirish;*
- *Kiberxavfsizlik va gibril tahdidlar sohasida nou-xau almashish, xususan, Yevropa Ittifoqining gibril tahdidlar bo'yicha olib borgan kuzatuvlari doirasida Markaziy Osiyoga shu turdagi tahdidlarni birgalikda aniqlashda ishtirok etish imkonini berish;*

- *Zamonaviy va integrasiyalashgan chegara boshqaruvi sohasidagi hamkorlikni mustahkamlash, o'z navbatida, ushbu maqsadga erishish uchun Yevropa Ittifoqi-Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi-Afg'oniston o'rtasidagi uzoq yillik hamkorlikka tayanish;*
- *KShHB va Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida migrasiya va mobillik masalalari bo'yicha muloqot va hamkorlikni kuchaytirish.*

1.3. Atrof-muhit, iqlim va suv masalalari bo'yicha barqarorlikni yaxshilash

Markaziy Osiyo tobora jiddiy ekologik muammolarga duch kelmoqda. Iqlim o'zgarishlarining ta'sirida Markaziy Osiyoning daryo va irmoqlari boshlanuvchi muzliklarning orqaga chekinishi va aholining tez o'sishi sababli yuzaga kelgan suv tanqisligi mintaqada oldida turgan ba'zi ekologik muammolarni yanada kuchaytiradi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy rivojlanish, xavfsizlik va migrasiya bo'yicha o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

Yevropa Ittifoqi mintaqaga bu muammolarni imkoniyatlarga aylantirishda yordam berishi mumkin. Aslida transchegaraviy xarakterga ega muammolar o'zaro ishonch ustiga qurilgan va o'zaro kelishilgan yechimlarni talab qiladi. Yevropa Ittifoqi atrof-muhit, suv resurslari va iqlim o'zgarishiga qarshi kurash sohasidagi hamkorlikka nisbatan **mintaqaviy yondashuvni** davom ettiradi.

Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyolik sheriklari bilan iqlim o'zgarishlarini yumshatish va unga moslashish, tabiiy ofatlar xavfini kamaytirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar orqali **Iqlim o'zgarishlari bo'yicha Parij bitimi**¹⁰ amalga tatbiq etish va *respublikalarning qat'iy maqsadlarini* amalga oshirish yo'lida hamkorlik qiladi.

Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyo mamlakatlariga yuqori ekologik standartlarni qabul qilishda yordam beradi. Xususan, mahsulot narxlari iloji boricha uzoq vaqt saqlanib turadigan, energiya samaradorligini oshiradigan va resurslar yanada samaraliroq ishlatiladigan, issiqxona gazlari, zaharli moddalarning atmosferaga chiqarilishini va chiqindilarni qisqartiradigan iqtisodiyot foydasiga **chiziqli ishlab chiqarish** modellaridan voz kechishiga ko'maklashadi. Barqaror ishlab chiqarish va iste'mol tartibiga o'tish fuqarolar sog'lig'i va hayot sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, shu bilan birga iqtisodiyotni diversifikasiyalash, yangi biznes imkoniyatlarini ochish va o'sishni rag'batlantirishga yordam beradi.

Yevropa Ittifoqi mintaqaning quyosh, shamol va gidroenergetikadagi salohiyatidan kelib chiqib, **energetika sohasidagi islohotlarni va Markaziy Osiyoda past uglerodli iqtisodiyotga o'tish jarayonini** qo'llab-quvvatlaydi.

¹⁰ 2015-yil 12-dekabrda imzolangan.

Yevropa Ittifoqining **qayta tiklanadigan energiya, energiya samaradorligi** tarmoqlarida texnologiya va nou-xauni joriy etishi, shuningdek, boshqaruvni tartibga soluvchi islohotlar bo'yicha tavsiyalari, mintaqaning energiya barqarorligini yaxshilashga, uning iqlim muammolarida o'z maqsadlariga erishishiga, Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyoda yangi ish o'rinlari va biznes imkoniyatlarini yaratishga yordam beradi.

Yevropa Ittifoqi, shuningdek, **atrof-muhitni boshqarishni yaxshilashga** va atrof-muhitga ta'sirni mutanosib baholash orqali Markaziy Osiyo davlatlarining atrof-muhit muammolarini boshqa siyosat va hukumat qarorlariga uyg'unlashtirishni mustahkamlashga ko'maklashadi. Bu aloqa infratuzilmasida investitsiyalarning ekologik barqarorligiga va Markaziy Osiyo davlatlarining mintaqaviy va global darajada tuzilgan ko'p tomonlama ekologik bitimlarga rioya qilishiga yordam beradi.

Tabiiy resurslarni barqaror boshqarish, biologik xilma-xillikni himoya qilish va ekoturizm bo'yicha tajriba almashish qishloq hududlarini rivojlantirish, ekotizimni asrash va atrof-muhit haqida bilimga ega bo'lish kabi bir qator maqsadlarga erishishga yordam beradi.

Yevropa Ittifoqi *Kengashning Suv diplomatiyasi to'g'risidagi xulosalari*¹¹ ga muvofiq, **suv, tinchlik va farovonlik uchun mintaqaviy dasturini** ilgari surish ustuvor vazifa bo'lib qoladi. Yevropa Ittifoqi BMT agentliklari va boshqa tegishli hamkorlar bilan kelishilgan holda transchegaraviy suv resurslarini adolatli boshqarish yuzasidan mintaqaviy hamkorlikni yaxshilash bo'yicha o'zaro maqbul yechimlarni ilgari surishda davom etadi. YeI *Birlashgan Millatlar Tashkiloti qoshidagi Yevropa iqtisodiy komissiyasining Suv konvensiyasi*¹² ga a'zo bo'lish va uni amalga oshirishni rag'batlantiradi, shuningdek, **Orol dengizi** mintaqasida hamkorlik va **Kaspiy dengizining huquqiy maqomi to'g'risidagi bitim**¹³ ni amalga oshirishda hamkorlik qiladi.

Yevropa Ittifoqi mintaq bilan hamkorlikni **suv resurslarini kompleks boshqarishni** rag'batlantirish, oqova suvlarni kamaytirish, suv sifatini yaxshilash, shuningdek, suv infratuzilmalarini modernizasiya qilish va zamonaviy qishloq xo'jaligi sug'orish tizimlarini rivojlantirishni davom ettirish maqsadida mutaxassislar tayyorlash orqali qo'llab-quvvatlaydi.

Mintaqa tabiiy va texnogen tahdidlarga moyil bo'lganligi sababli, Yevropa Ittifoqi **tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish** bo'yicha yangi siyosat va qonunlarni qabul qilish maqsadida milliy va mintaqaviy harakatlarni qo'llab-quvvatlaydi.

¹¹ Water Diplomacy – Council conclusions, 13991/18 of 19 November 2018.

¹² Convention on the Protection and Use of Transboundary Watercourses and International Lakes, done at Helsinki on 17 March 1992.

¹³ 2018-yil 1-avgustda Oqtouda imzolangan.

Shuningdek, YeI o'z tajribasi bilan o'rtoqlashgan holda fuqarolik muhofazasi va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish bo'yicha mintaqa xususiyatlaridan kelib chiqib yanada tizimli yondashuvni ilgari suradi.

Yevropa Ittifoqi mintaqadagi uran qazib olishdan qolgan **zaharli kimyoviy va radioaktiv chiqindilar asoratlarini** bartaraf etish uchun ekologik tozalash choralari bo'yicha hamkorlikni davom ettiradi.

Yevropa Ittifoqi atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida, davlat va ayniqsa, xususiy kapitalni safarbar qilish uchun o'z vositalarini, grantlari va moliyaviy kafolatlarini, xususan, *Yevropa investitsiya banki (YeIB)*, *Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YeTTB)* tomonidan va boshqa ko'p tomonlama rivojlanish banklari bilan hamkorlikda taqdim etadi. Bundan ko'zlangan maqsad esa, **ekologik loyihalar va ekologik barqaror iqtisodiy faoliyatga** homiylik qilishdir. Bundan tashqari, xususiy investitsiyalarni jalb qilishda mustahkam me'yoriy-huquqiy bazani yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu sohada amalga oshirilishi lozim bo'lgan aniq tashabbuslar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- *Atrof-muhit, suv resurslari va iqlim o'zgarishi sohasida mintaqalararo hamkorlik forumlari va mexanizmlarini mustahkamlash;*
- *Qayta tiklanadigan energiya manbalarini qo'llab-quvvatlash uchun tajriba almashish va moliyalashtirishning innovasion usullarini ishlab chiqish;*
- *Suv xo'jaligi sohasidagi tadqiqotlar va hamkorlikni targ'ib qilish, samarali siyosatni qo'llab-quvvatlaydigan iqlim va suv haqidagi ishonchli ochiq ma'lumotlarning mavjudligi;*
- *BMTning Markaziy Osiyodagi pryeventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi bilan suv va xavfsizlik o'rtasidagi uzviylikni mustahkamlash bo'yicha hamkorlik qilish;*
- *Tabiiy resurslar va ekotizimlarni barqaror boshqarishni qo'llab-quvvatlash va Bioxilmaxillikning strategik rejasi hamda 2020-yildan keyingi Global biologik xilma-xillik Ish rejasini amalga oshirishga ko'maklashish;*
- *Aylanma iqtisodiyot bo'yicha xususan, chiqindilarni barqaror boshqarish va havoning ifloslanishini kamaytirish tizimlarida hamkorlik qilish va tajriba almashish.*

2. FAROVONLIK YO'LIDAGI SHERIKLIK

Yevropa va Osiyo chorrahasida yanada tobora ko‘proq strategik mavqe kasb etib borayotgan, yosh¹⁴ va savodxonligi yuqori aholi, shuningdek, boy tabiiy resurslarga ega Markaziy Osiyo sezilarli o‘shish va rivojlanish salohiyatini namoyon etmoqda. Shu bilan birgalikda, mintaqada globallashtiruv muammolariga qarshi turish va u taqdim etayotgan imkoniyatlardan foydalanish uchun iqtisodiy rivojlanishning yangi modellarini qabul qilish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish zarurligini tan olish to‘g‘risida fikrlar ilgari surilmoqda. Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyo davlatlari bilan barqaror natijalarga erishishda yordam berish uchun, jumladan, xususiy bozorni rivojlantirish, qulay sarmoyaviy muhitni yaratish, “yashil” va aylanma iqtisodiyotga o‘tishni tezlashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish, inson kapitaliga sarmoya kiritish va har bir kishi munosib ish o‘rniga ega bo‘lishi yo‘lida hamkorlik qiladi. Bu omillar ichki va mintaqalararo savdo imkoniyatlarini ochib beradi va bog‘liqlikning bardavom bo‘lishini ta‘minlaydi.

2.1. Iqtisodiy islohotlar uchun sheriklikni kuchaytirish

Yevropa Ittifoqi hozirgi vaqtda asosan, past darajadagi qo‘shilgan qiymatli mahsulotlarning eksportiga¹⁵ va mehnat muhojirlari pul o‘tkazmalariga haddan tashqari bog‘liq bo‘lgan Markaziy Osiyo iqtisodiyotining xususiy sektor jalb qiluvchi, ish o‘rinlari yaratuvchi, diversifikatsiyalashgan, mintaqaviy va global narx tarmoqlariga qo‘shilishi, teng sharoit yaratish, raqobatbardosh iqtisodiyotga aylanishi va barcha iqtisodiy sub‘ektlar uchun yangi istiqbollarni ochishini qo‘llab-quvvatlashdan to‘liq manfaatdor.

Yevropa Ittifoqi mintaqada **yanada barqaror va inklyuziv o‘shish modellarini** ishlab chiqishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Iqtisodiy islohotlar va modernizatsiya butun jamiyatga foyda keltirishi va tengsizlikni, shuningdek, shahar va qishloqlar o‘rtasidagi tafovut va bo‘shliqlarni kamaytirishga yordam berishi kerak. Bu borada, ayniqsa, Yevropa Ittifoqining qishloq hududlarini rivojlantirish, mintaqaviy siyosat va birdamlik tajribasi foydali bo‘ladi.

Yevropa Ittifoqining ishtiroki **raqobatbardosh xususiy sektorni**, jumladan, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishga qaratiladi. Chunki bu sektor iqtisodiy o‘shishni qo‘llab-quvvatlash, ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish, munosib ish o‘rinlarini yaratish va qashshoqlikka qarshi kurashda muhim rol o‘ynashi mumkin. Yevropa Ittifoqi kapital bozorining rivojlanishiga yordam beradi va kichik va o‘rta biznes sub‘ektlarini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birgalikda, mustahkam me‘yoriy-huquqiy bazani va soliq siyosatini, korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib borishni ta‘minlaydi. Xususiy sektorni rivojlantirish

¹⁴ Mintaqa aholisining yarmi 20 yoshga to‘lmagan yoshlar tashkil etadi va Markaziy Osiyo iqtisodi har yili mehnat bozoriga kirib keladigan 1 million yangi ishchi kuchi masalasini hal etishi lozim.

¹⁵ Uglevodorodlar va minerallar mintaqaning 2018-yildagi jami eksportini 60 foizini tashkil qilgan.

YeIning Markaziy Osiyo uchun sarmoya vositasi oldidagi ustuvor vazifasi bo‘lib qoladi.

Jahondagi xususiy investitsiyalarning asosiy manbai sifatida Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyoda investitsiya va savdo faoliyatini olib boruvchi Yevropalik iqtisodiy operatorlar uchun **sog‘lom, oshkora, shaffof, kamsitishlarsiz va oldindan ko‘zlab tartibga soluvchi qoidalar va siyosat iqlimini** rag‘batlantirish maqsadida mintaqadagi hukumatlar va biznes vakillari, shuningdek, xalqaro moliya institutlari bilan strategik ahamiyatdagi muloqotni faollashtirishda alohida o‘rin tutadi.

Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyodagi korxonalar, xususan, yosh kompaniyalar (startaplar) va biznes-inkubatorlar o‘rtasida **yuzma-yuz biznes muloqot va hamkorlikni** rag‘batlantiradi. U *Yevropada savdo palatalari* kabi Markaziy Osiyo mamlakatlari korxonalarini o‘rtasida muloqot va hamkorlik uchun ikki tomonlama va mintaqaviy forumlar yaratishga yordam beradi. Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyodagi ish beruvchilar va ishchilar uyushmalarining investitsiya muhiti va ta’limidan tortib, bandlik imkoniyatlari (shu jumladan ayollar va qizlar uchun ham) va mehnat bozorini isloh qilishgacha bo‘lgan masalalarda muloqotda bo‘lishini ta’minlaydi.

Sifatli statistika ma’lumotlarining mavjudligi samarali davlat siyosatini ishlab chiqishning zaruriy sharti hisoblandi. Shu sababli, Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyo mamlakatlarida statistika tizimini rivojlantirish bo‘yicha ishlarni davom ettiradi.

Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyo davlatlari bilan muntazam ikki tomonlama maslahatlashuvlar orqali makroiqtisodiy islohotlar, **moliyaviy, pul-kredit va soliq siyosati, davlat moliya boshqaruvi sohalarida** savdo va hamkorlikni kuchaytiradi. Bu qarz va ichki obligasiyalar bozorini boshqarish strategiyasini ilgari suradi va pul-kredit siyosati va moliyaviy tizim ustidan nazoratni isloh qiladi.

Bu boradagi aniq tashabbuslar, ayniqsa, quyidagilarga qaratilishi lozim:

- *Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo biznes korxonalararo muloqot va hamkorlik, tarmoqlar kesimidagi muloqot va texnik yordamlar orqali ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaxshilashga hissa qo‘shish va xususiy sektor, jumladan, kichik va o‘rta biznes korxonalarining rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash;*
- *Nou-xau yangiliklarini o‘rtoqlashish va iqtisodiy islohotlarning muhim jabhalarida Markaziy Osiyo ma’muriyatlarining salohiyatini oshirishni rag‘batlantirish;*
- *Statistika tizimini rivojlantirishda nou-xau tajribalarini o‘rtoqlashish.*

2.2. Ichki va mintaqalararo savdo va investitsiyalarni osonlashtirish

Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo o'rtasidagi savdo va sarmoya salohiyatiga hali ham to'siq bo'lib turgan tuzilmaviy cheklovlarni olib tashlash¹⁶, mintaqada ichidagi savdo¹⁷ va investitsiyalarni rag'batlantirish va Markaziy Osiyoning jahon iqtisodiyotiga yanada ko'proq integrasiyalashuviga erishish uchun birgalikda ishlashni kuchaytirish zarur.

Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyodagi barcha davlatlarining **Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishini** rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashda davom etadi. JSTning majburiyatlarini bajarish ularga iqtisodiyotini ochish, xalqaro maydonda raqobatbardoshlikni oshirish, umumiy qiymat zanjirlariga qo'shilish va global iqtisodiy boshqaruvni qurishda ishtirok etish uchun yordam beradi. Mintaqada teng raqobat sharoitini yaratish va bu yerda tadbirkorlikka bo'lgan ishonchni oshirish JSTning *Davlat xaridlari to'g'risidagi bitimiga (GPA)* qo'shilishni rag'batlantirishni ham o'z ichiga oladi.

Yevropa Ittifoqi mintaqaviy integrasiyalashuv mexanizmlari sohasidagi tajribasiga tayanib, **Markaziy Osiyoda mintaqada ichidagi savdo va sarmoyalarni** osonlashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlaydi. Ayniqsa, savdo uchun tarifsiz to'siqlarni olib tashlash borasidagi eng yaxshi tajribalar bilan o'rtoqlashadi; huquqiy tartibga solish va garmonizatsiyalashni rag'batlantiradi, bunda *Xalqaro standartlashtirish tashkiloti va Xalqaro elektrotexnika komissiyasi* tomonidan olib boriladigan xalqaro standartlashtirish tizimi va kuchli sifat tizimi integrasiyalashuv uchun muhim elementlar ekanligi isbotlangan.

Yevropa Ittifoqi **o'z qonun-qoidalari, xalqaro va Yevropa texnik standartlari bilan muvofiqlikni rag'batlantirish** va **savdo uchun texnik to'siqlarni olib tashlash** uchun KShHB va texnik hamkorlik dasturlaridan foydalanadi. Yevropa Ittifoqi qoidalari va standartlari butun dunyoda tan olingani hisobiga bu sa'y-harakatlar ham YeIning, ham mintaqada davlatlarini o'zaro bozorga kirishini osonlashtiradi va Markaziy Osiyo iqtisodiy sub'ektlari uchun jahon bozoriga chiqish imkoniyatlarini yaratadi. Markaziy Osiyo mamlakatlarida oziq-ovqat xavfsizligi tizimini mustahkamlash yo'lida sanitariya va fitosanitar choralar bo'yicha muloqotni kuchaytirish mahalliy biznes va iste'molchilar uchun manfaatli bo'lishi bilan birgalikda Yevropa Ittifoqi bilan savdo-sotiqni osonlashtiradi.

¹⁶ 2018-yilda YeI Markaziy Osiyo davlatlarining har birining savdo va sarmoyalar bo'yicha sheriklari orasida eng yuqori beshlikdan joy oldi, biroq hali ham mintaqada bilan savdo hajmi YeI umumiy tashqi savdo hajmining 1 foizdan kamrog'ini tashkil qiladi (In 2018, the EU ranked among the top five trade and investment partners of each Central Asian states but trade with the region still represented less than one percent of total EU trade).

¹⁷ 2018-yilda mintaqada ichidagi savdo hajmi mintaqaning umumiy tashqi savdo hajmini 5 foizini tashkil qildi (Intra-regional trade accounted for 5% of the region's total trade in 2018).

Yevropa Ittifoqi **o‘zaro tovarlar va xizmatlar bozoriga kirishni** yaxshilash uchun Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikni davom ettiradi. YeI eksport va iqtisodiy diversifikasiyani rag‘batlantira oladigan, standartlar va ish sharoitlarining yaxshilanishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan **GSP** va **GSP+** tomonidan taqdim etiladigan Ittifoq bozoriga bir tomonlama imtiyozli kirish imkoniyatidan Markaziy Osiyo mamlakatlarining yaxshiroq foydalanishiga hamda KShHBning to‘liq implementatsiyasiga yordam beradi.

YeI Markaziy Osiyo bilan bojxona tartiblarini soddalashtirish va uyg‘unlashtirish maqsadida YeI, *Xalqaro bojxona tashkiloti* va JSTning **xalqaro bojxona standartlariga** uyg‘unlashishni rag‘batlantirish yo‘lidagi hamkorligini yangi bosqichga ko‘taradi. YeI mintaqaga bilan noqonuniy savdo, bojxona va soliq jinoyatlari, soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash va intellektual mulk huquqi buzilishlariga qarshi kurash sohasida hamkorlikni kuchaytiradi. Ittifoq pul yuvish, korrupsiya va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashni kuchaytirish maqsadida o‘zaro ma’lumot almashishni kengaytiradi.

Yevropa Ittifoqi o‘z tajribasiga asoslanib, mintaqaga qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini diversifikasiya qilish orqali qiymatini yanada ko‘proq oshirishga yordam beradigan Markaziy Osiyoning **Geografik Ko‘rsatkichlaridan** foydalanish va ularni rivojlantirishni rag‘batlantirishda davom etadi.

Bu sohada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan aniq tashabbuslar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- *Cavdo sohasidagi tarifsiz to‘siqlarni bartaraf etish va me‘yoriy hujjatlarning mutanosibligi va uyg‘unligini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha Yevropa Ittifoqi tajribasini joriy etish;*
- *Texnik yordam orqali JST va Davlat xaridlari to‘g‘risidagi bitim (GPA)ga a‘zolikni qo‘llab-quvvatlash;*
- *Oziq-ovqat xavfsizligi tizimini mustahkamlash yo‘lida sanitariya va fitosanitar choralar yuzasidan muloqotlarni kuchaytirish;*
- *Mintaqada ichida o‘zaro ayirboshlash va Yevropa Ittifoqi bilan savdoni osonlashtirish uchun standartlashtirish va sifatni o‘lchash infratuzilmasi bo‘yicha tajribalarni almashish;*
- *Bojxona tartiblarini soddalashtirish va moslashtirishga ko‘maklashish hamda transchegaraviy elektron tijoratni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash;*
- *GSP va GSP+ tomonidan taqdim etilgan Ittifoq bozoriga bir tomonlama imtiyozli kirish imkoniyatlaridan yaxshiroq foydalanish maqsadida texnik hamkorlikni kuchaytirish;*
- *Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini diversifikasiyalashda yordam berish uchun Geografik Ko‘rsatkichlardan foydalanish tajribasi bilan o‘rtoqlashish.*

2.3. Barqaror bog‘liqlikni rag‘batlantirish

Yevropa va Osiyo o‘rtasidagi bog‘liqlikning rivojlanishi infratuzilmalarni yaxshilash, iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, mintaqaviy va global qiymat tarmoqlariga integratsiyalashuv orqali Markaziy Osiyoga katta foyda keltirish imkoniyatiga ega. Yevropa Ittifoqi Yevropa va Osiyo o‘rtasidagi savdo koridorlarini rivojlantirishdan, shuningdek barqaror, ochiq, inklyuziv va qat’iy qoidalarga asoslangan aloqalarni ta’minlashdan manfaatdor sanaladi. O‘z navbatida, YeI yuqoridagi omillar yordamida Markaziy Osiyoda barqaror investitsiyalar uchun qulay muhit va biznesda teng sharoitlarni yaratishda muhim o‘rin tutadi.

*Yevropa va Osiyo bog‘liqligi bo‘yicha Strategiya*¹⁸ga muvofiq va mavjud hamkorlik formatidan foydalanganib, bozor iqtisodiyoti tamoyillarigi rioya qilgan, shaffoflikni kafolatlagan hamda xalqaro standartlarga asoslangan holda Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyo davlatlari bilan **barqaror bog‘liqlik sohasida sherikchilikni** o‘rnatish orqali shaffoflikni ta’minlaydi. Bu sohadagi hamkorlik asosan **transport, energetika va raqamli aloqalar sohasiga, shuningdek, insoniy yuzma-yuz aloqalariga** qaratilishi kerak. Bu hamkorlik Markaziy Osiyoga tranzit hudud bo‘lishdan tashqari barqaror daromad manbasi sifatida xizmat qiladi, mintaqa mamlakatlarining Barqaror Rivojlanishi Maqsadlari va iqlim o‘zgarishlari sohasidagi maqsadlariga erishishda yordam beradi.

Yevropa xususiy sarmoyalari va Ittifoq mintaqaviy hamkorlik dasturlarining o‘zaro omuxtalashuvi 90-yillarning boshidan boshlab Yevropani qo‘shnilari va Markaziy Osiyo bilan bog‘lashga xizmat qilib, yordam Yevropa Ittifoqini Yevropa-Osiyo aloqalarini rivojlantirishdagi asosiy ishtirokchiga aylantirdi. Bu borada xalqaro darajadagi yangi sa’y-harakatlar, xususan, *Transevropa transport tarmoqlarini (TEN-T)* Ittifoqning qo‘shni davlatlarigacha kengaytirish, Xitoyning *“Bir makon, bir yo‘l”* tashabbusi va boshqa loyihalar Markaziy Osiyoning asosiy ehtiyojlarini qondirishda ajoyib imkoniyatlar yaratishi mumkin.

Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo davlatlari barqaror **transport bog‘liqlikni** loyihalashtirish va zarur me’yoriy-huquqiy bazani yaratish, xususan, rivojlangan TEN-T tuzilmasini Markaziy Osiyo, jumladan Janubiy Kavkaz va boshqa mintaqaviy tarmoqlar bilan bog‘lash sohasida o‘zaro hamkorlikni kuchaytiradi va sinergiyani kafolatlaydi¹⁹. Bu, ayniqsa, *Markaziy Osiyoda*

¹⁸ *Strategy on Connecting Europe and Asia*. Connecting Europe and Asia – Building blocks for an EU Strategy – Council conclusions, 13097/18 of 15 October 2018.

¹⁹ Markaziy Osiyo mamlakatlari YeI-Xitoy bog‘liqligi Ish rejasida ko‘zda tutilgan Yevropa va Xitoy o‘rtasidagi doimiy temir yo‘l transportiga asoslanadigan Kompleks Transport Koridorlari bo‘yicha qo‘shma tadqiqotlar yuzasidan maslahatlashuvga taklif etiladi (Central Asian countries will be consulted on the Joint Study on Sustainable

mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish orqali barqaror va muvozanatlashgan SHarq-G'arb va SHimol-Janub quruqlik transport bog'liqligiga erishishni maqsad qiladi. Bu maqsadlarni ro'yobga chiqarish uchun, zarurat tug'ilganda, YEI texnik yordam taklif qilishi, o'z sheriklariga transport tizimini loyihalashtirish va o'zaro bog'lanishiga yordam berish uchun barqaror infratuzilmani rivojlantirishda ko'maklashadi. Yevropa Ittifoqi avtomobil va temir yo'l transportida, **elektr yordamida harakatlanuvchi ulovlarni** rag'batlantirish orqali quruqlik transportining ekologik zararlarini qisqartirishga ko'mak beradi, xavfsizlik masalalarini qamrab olgan holda **havo transporti va fuqaro aviasiyasining** rivojlanishiga kerakli e'tiborni qaratadi.

Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo davlatlarining **chegaralarni boshqarish** sohasidagi keyingi hamkorligi, jumladan, zamonaviy integrasiyalashgan chegara boshqaruvi sohasidagi hamkorlikni kuchaytirish, shuningdek, o'zaro **muvofiqlashgan bojxona tranzit tizimlarini** ilgari surish, transport sohasida aloqalarni rivojlantirish bo'yicha sa'y-harakatlar YEI tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

YEI Markaziy Osiyoning YEI **energiya ta'minoti xavfsizligi va ta'minotchilari, manbalar va yetkazib beruvchi yo'llarni diversifikatsiyalash**, xususan, *Trans-Kaspiy neft-gaz quvurini* qurish imkoniyatlarini baholashdagi rolini kuchaytirishga e'tiborini davom ettiradi. YEI xarajatlarni kamaytirishga yordam beruvchi texnologiya va ko'nikmalarni kuchaytirish, qayta tiklanadigan energiya va energiya tejoychi texnologiyalarni yaratish hamda boshqa moliyaviy rag'batlantirish yo'llari bilan investitsiyalarni safarbar etish uchun zarur bo'lgan me'yoriy bazani mustahkamlash uchun Markaziy Osiyo bilan hamkorlik qiladi. Yevropa Ittifoqi aqlli va barqaror markazlashtirilmagan tarmoqlar orqali elektr taqsimotini modernizatsiyalashga, mintaqaviy va mintaqalararo elektr energiyasi savdosiga ijobiy impuls berish maqsadida **mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni rivojlantirishga** ko'maklashadi.

Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo **raqamli iqtisodiyot** sohasidagi hamkorlikni kuchaytiradi. Bunda alohida e'tibor arzon, ochiq va xavfsiz ulanishlar va raqamli infratuzilmalarga, shu jumladan, sohani tartibga soluvchi yangi normativ hujjatlar qabul qilish; yuqori salohiyatga ega tadqiqotlar va ta'lim tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash va ularga xizmat ko'rsatish; raqamli bilim va ko'nikmalarni targ'ib qilish; raqamli tadbirkorlik va shu orqali ish o'rinlarini yaratishni rag'batlantirish, elektron boshqaruv va onlayn ta'lim kabi sohalarni rag'batlantirishga qaratiladi. O'ziga xos xususiyatlardan kelib chiqqan holda, raqamlashtirish integrasiyalashgan chegara boshqaruvi, davlat boshqaruvini isloh qilish, savdo, transport va energetika infratuzilmasi, kichik va o'rta korxonalarni

railway-based Comprehensive Transport Corridors between Europe and China as determined in the framework of EU-China Connectivity).

qo‘llab-quvvatlash kabi sohalarida Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bilan hamkorligining asosiy jihati bo‘ladi. Yevropa Ittifoqi tegishli forumlar doirasida internetda erkinlik va dezinformasiyaga qarshi kurash bo‘yicha tajriba almashishni kengaytiradi.

Sun‘iy yo‘ldoshlarni aniqlash, navigasiya va datasiya xizmatlarini taqdim etuvchi **“Galiley”**dan foydalanish sohasida hamkorlik transport bog‘likligini osonlashtiradi hamda energiya va telekommunikatsiya tarmoqlaridan foydalanish ilovalarini taqdim etadi.

Yevropa Ittifoqi **uchinchi davlatlar, mintaqaviy tashkilotlar va xalqaro moliya institutlari** bilan yaqindan aloqalar o‘rnatib, barqarorlik va teng sharoitlar yaratish uchun hamkorlik qiladi hamda Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqining umumiy manfaatlarini himoya qiladi. YEI Yevropa-Osiyo aloqalarini mustahkamlash yo‘lida faoliyat yuritayotgan boshqa asosiy sheriklar, ayniqsa, Osiyo-Yevropa uchrashuvlari (*Asia-Europe Meeting (ASEM)*) jarayoni bilan hamkorlik o‘rnatishga intiladi. Yevropa Ittifoqining barqaror bog‘liqlik loyihalarini qo‘llab-quvvatlashdagi ishtiroki mintaqadagi boshqa ishtirokchilarning investitsiya loyihalarini umumiy sifatini yaxshilashga yordam berishi ko‘zda tutilgan.

Markaziy Osiyoda barqaror bog‘liklikni ta‘minlash yo‘lida **davlat va xususiy sektor kapitalini safarbar qilish** uchun Yevropa Ittifoqi o‘z moliyaviy vositalari, grantlari, kafolatlari hamda Yevropa investitsiya banki kreditlaridan foydalanadi, shuningdek, xalqaro moliya institutlari va ko‘p tomonlama taraqqiyot banklari banklari bilan hamkorlik qiladi.

Bu sohada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan aniq tashabbuslar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- *Barqaror samarali bog‘liqlikni kafolatlash uchun ikki tomonlama va mintaqalararo hamkorlikni mustahkamlash;*
- *TEN-T tarmoqlarini kengaytirish orqali Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo o‘rtasida transport koridorlarini rivojlantirishga yordam berish;*
- *Amaldagi Energetika sohasidagi hamkorlik bo‘yicha Memorandumlar doirasida va ehtiyoj tug‘ilganda, energetika bo‘yicha maxsus mintaqaviy konferensiyalar tashkil etish orqali ikki tomonlama muloqotlarni faollashtirish;*
- *Yashil investitsiyalarni, xususan, qayta tiklanadigan energiya va energiya samaradorligini yanada rag‘batlantirish uchun innovasion moliyalashtirish va omuxtalashdan foydalanish;*
- *Barqaror bog‘liqlik loyihalarini qo‘llab-quvvatlash uchun Yevropa Ittifoqi moliyaviy vositalaridan (grantlar, qo‘shimchalar va kafolatlar)*

foydalanish hamda xalqaro moliy institutlari va boshqa manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashuvlarni kengaytirish.

2.4. Yoshlar, ta'lim, innovasiyalar va madaniyatga sarmoya kiritish

Turli sohalarda faoliyat yuritayotgan aholining malakasini oshirish Markaziy Osiyoning raqobatbardoshligi va ijtimoiy yaxlitligini ta'minlashning muhim elementi bo'ladi. Sifatli ta'limni targ'ib qilish, ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini yaxshilash va Markaziy Osiyodagi yoshlar va ayollar uchun munosib ish istiqbollari ta'minlash mintaqaga tez o'zgaruvchan texnologiyalarga bo'lgan ehtiyojni qondirishda, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va xorijiy investorlarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan malakali ishchi kuchini ta'minlashda yordam beradi. Ayniqsa qishloq hududlari, xususan xotin-qizlar uchun sifatli ta'lim berish va munosib ish o'rinlarini ta'minlash malakali ishchi kuchining emigratsiyasini, shuningdek, radikallashtirish va ekstremizmning oldini olishda asosiy omil bo'lib qoladi.

Yevropa Ittifoqi **ta'lim-tarbiya, oliy va kasb-hunar ta'limi, kadrlar salohiyatini oshirish va sifatini yaxshilash** uchun mintaqada ichida hamda mintaqalararo hamkorlikni qo'llab-quvvatlaydi. U **ta'lim tizimi va mehnat bozori, shuningdek, raqamli ta'lim o'rtasidagi uyg'unlikni rag'batlantiradi.**

Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyodagi universitetlarni modernizatsiya qilish hamda **Boloniya oliy ta'lim jarayoni** maqsadlariga va **kasb-hunar ta'limi va malaka oshirish bo'yicha Turin tamoyillariga** erishish yo'lida *Erazmus+* dasturidan foydalanishi mumkin. Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyo universitetlarida **Yevropa tadqiqotchiligini** rivojlantirishga intilishi kerak. Bundan tashqari, Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar universitetlarining Markaziy Osiyo universitetlari bilan **hamkorlikni o'rnatishi va filiallar ochishi** hamda mintaqada **til ta'limini** rivojlantirishi qo'llab-quvvatlanishi lozim.

Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyoga *Yevropa oliy ta'lim makoni* namunasidan kelib chiqib, **mintaqaviy oliy ta'lim makonini** rivojlantirishga ko'maklashish imkoniyatlarini o'rganadi. Bu mintaqada mamlakatlariga oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish hamda sifat kafolati va o'zaro tan olish mexanizmlarini mustahkamlab, ularni bir-biriga moslashtirish imkonini beradi.

YeI Markaziy Osiyodagi iqtisodiy o'zgarishlar natijasida paydo bo'ladigan ehtiyojlarni qondirish va mintaqadagi yevropalik sarmoyadorlar talablaridan kelib chiqqan holda *Yevropa ta'lim jamg'armasi* bilan birgalikda, yoshlarning va katta yoshlilarning umrbod ta'lim olish va shu barobarida mehnat faoliyatini davom ettirishlari uchun **kasbiy ta'lim sohasidagi** hamkorlikni kuchaytiradi.

EIning Markaziy Osiyo bilan **tadqiqot va innovasiyalar** sohasidagi hamkorligi yuzma-yuz insoniy aloqalarni kuchaytirib, mintaqa oldida turgan qiyinchiliklarni osonroq yengishga ko‘maklashadi. Iqlim, suv va atrof-muhit muammolari, shuningdek oziq-ovqat xavfsizligi, qayta tiklanadigan va ekologik toza energiya manbalariga aloqador muammolarni hal qilish uchun nou-xau va innovasion texnologiyalar bilan bo‘lishish mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Bu vazifani amalga oshirish aniq, ishonchli va oshkora statistik bazani yaratish hisobigagina ta‘minlanadi. Qishloq xo‘jaligi, sog‘liqni saqlash, “yashil” transport va shaharlarning barqaror rivojlanishi sohasidagi tadqiqotlar bo‘yicha hamkorlikni faollashtirish har ikki tomonga ham foyda keltiradi. Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyodagi universitetlar hamda tadqiqot markazlari xususan, *Mariya Sklodovskaya-Kyuri dasturlari* orqali tadqiqotchilarning mobilligi va kadrlar almashinuvini rag‘batlantirishni davom ettirishlari zarur.

*Yevropa Ittifoqining tashqi aloqalarida madaniyat bo‘yicha strategiya*²⁰ bilan muvofiqlikda, shuningdek Markaziy Osiyoning “Ipak yo‘li” koridori madaniy merosiga asoslanib, Yevropa Ittifoqi mintaqa bilan sheriklik, birgalikda ijodiy ishlab chiqarish hamda madaniy va kreativ sanoat, madaniyatlararo muloqot va madaniy merosni saqlash sohasida **madaniy hamkorlikni** rivojlantiradi. Shu maqsadda Yevropa Ittifoqi *Birlashgan Millatlarning ta‘lim, fan va madaniyat tashkiloti* hamda Yevropadagi yetakchi madaniy muassasalar bilan hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqadi. YeI san‘atkorlar va madaniyat mutaxassislarining mobilligini o‘zaro almashinuv, malaka oshirish va qisqa muddatli yashash orqali qo‘llab-quvvatlaydi, ayni paytda sport sohasida mobillik va o‘zaro almashinuv ham kuchaytirilishi lozim.

YeI Markaziy Osiyo va YeI-Markaziy Osiyo aloqalari bo‘yicha tadqiqotlarga ko‘maklashadi hamda Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyolik **tadqiqotchilar va tahliliy markazlar** o‘rtasidagi o‘zaro muloqot imkoniyatlarini kengaytiradi.

Bu sohada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan aniq tashabbuslar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- *Gorizont, Erasmus+ va Mariya Sklodovskaya-Kyuri dasturlari doirasida Markaziy Osiyolik benefitsiarlarning profillarini diversifikatsiya qilish va ularning sonini oshirish;*
- *Suv, oziq-ovqat va atrof-muhit sohasida mintaqa ichidagi va mintaqalararo tadqiqotlar hamda innovasion hamkorlikni faollashtirish;*

²⁰ Yevropa Parlamenti va Kengashga Qo‘shma kommunikatsiya “Xalqaro madaniy aloqalar uchun bo‘yicha Yevropa Ittifoqi strategiyasi sari”, 2016-yil 8-iyundagi Qo‘shma (2016) Yakuniy 29-sonli hujjat (Joint Communication to the European Parliament and the Council “Towards an EU strategy for international cultural relations”, JOIN(2016) 29 final of 8 June 2016).

- *Talabalar, xodimlar va tadqiqotchilar, shuningdek, kasbiy ta'lim va malaka oshirish sohasida o'quvchilar va o'qituvchilarning mintaqa ichidagi va xalqaro miqyosdagi mobilligini rag'batlantirish;*
- *Yevropa oliy ta'lim makoni andozasidan ilhomlangan mintaqaviy hamkorlik dasturini rivojlantirishda Markaziy Osiyoga yordam berish;*
- *Yoshlarni ish bilan ta'minlash, ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish va bandlik sohasidagi eng ilg'or tajribalarni almashishni rag'batlantirish va muloqotni yo'lga qo'yish;*
- *Yevropa Ittifoqi, Markaziy Osiyo hukumatlari, tadbirkorlik uyushmalari va ijtimoiy sheriklar orasida malaka yetishmasligi va mehnat bozorini modernizasiya qilish bo'yicha kuchaytirilgan muloqotni qo'llab-quvvatlash.*

3. YANADA JIPSLIKDA ISHLASH

YeI o'sib borayotgan bir-biriga bog'langan muammolarni hal etishda tarmoq siyosatlarining yordamiga ishonch hosil qilgan holda Markaziy Osiyoga nisbatan yaxlit yondashuvni qo'llab-quvvatlashni maqsad qiladi. Yevropa Ittifoqining yangi Strategiyasi YeI institutlari va A'zo davlatlar tomonidan birgalikda amalga oshiriladi hamda ularning tegishli salohiyati va zaxiralari o'rtasida yanada ko'proq omuxtalik yaratilishi kerak bo'ladi.

3.1. Sherikchilik arxitekturasini mustahkamlash hamda fuqarolik jamiyatlari va parlamentlarni jalb qilish

Mintaqalararo muloqotning bugungi kunda joriy etilgan institutsional tizimi YeI vakili bo'lmish Ittifoqning Tashqi ishlar va xavfsizlik siyosati bo'yicha Oliy vakili/Komissiyaning vitse-Prezidenti ishtirok etadigan ***yillik YeI-Markaziy Osiyo Tashqi ishlar vazirlari uchrashuvi*** hamda vazirlar o'rinbosarlari darajasidagi yillik ***YeI-Markaziy Osiyo oliy darajadagi siyosiy va xavfsizlik muloqoti***dan iborat.

Ittifoqning Tashqi ishlar va xavfsizlik siyosati bo'yicha Oliy vakili/Komissiyaning vitse-Prezidenti va Markaziy Osiyo Tashqi ishlar vazirlari norasmiy uchrashuvlar o'tkazadilar, zarur holatda, *Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining yillik sessiyalari, YeXHT Vazirlar kengashi* va boshqa xalqaro yig'ilishlar hamda konferensiyalar doirasida uchrashadilar.

Bularga qo'shimcha tarzda, YeI-Markaziy Osiyo ***yuqori martabali mulozimlarining maxsus uchrashuvlari*** ko'zda tutilishi mumkin.

Markaziy Osiyo davlatlari bilan **ikki tomonlama munosabatlarni tartibga soluvchi institutsional tizim** KShHBlari tuzilishi va kuchga kirishi bilan hamda vazirliklar va yuqori martabali mulozimlar uchrashuvini to'ldiruvchi inson huquqlari sohasidagi doimiy muloqot asosida mustahkamlanadi.

YeI va Markaziy Osiyo Birlashgan Millatlar Tashkiloti atrofida qurilgan xalqaro huquq va qonuniylikka asoslangan dunyo tartibiga nisbatan bir xil xayrixohlikka tayanar ekan, YeI **ko'p tomonlama va mintaqaviy forumlarda hamkorlikni** kuchaytiradi.

Yevropa Parlamentining YeI-Markaziy Osiyo sheriklik dasturini boyitishda o'ynagan konstruktiv rolini hisobga olgan holda **parlamentlararo muloqotni** yanada davom ettirish va uni, xususan, muntazam tashriflar orqali rag'batlantirish lozim bo'ladi. YeI mintaqaga yuqori darajadagi tashriflarni yanada ko'proq tashkil etishga intiladi.

YeI, shuningdek, **fuqarolik jamiyati, tahliliy markazlar, mahalliy hokimiyat, ishbilarmon doiralar, ijtimoiy sheriklar, madaniy tashkilotlar, olimlar va yoshlar** bilan yaqin muloqotni kuchaytirishga qaratilgan sa'y-harakatlarini jadallashtiradi. Fuqarolik jamiyati institutlari bilan maslahatlashuvlar Yevropa Ittifoqining taraqqiyot yo'lidagi hamkorligini ishlab chiqishda muhim omil bo'lib, u hukumat hisobdorligi va uning shaffofligini ta'minlash yo'lida fuqarolik jamiyatining salohiyatini kuchaytirishga intiladi.

Har yili o'tkaziladigan "YeI-Markaziy Osiyo" vazirlar uchrashuvi fuqarolik jamiyati, ilmiy doiralar va tahlil markazlari, shuningdek, Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo rasmiy vakillarini birlashtiradigan norasmiy **"YeI-Markaziy Osiyo forumi"** doirasidagi uchrashuvlar bilan mazmunan to'ldirilishi mumkin. Bu uchrashuvlar fuqarolik jamiyatlariga Yevropa Ittifoqi-Markaziy Osiyo hamkorligining rivojlanishiga va uni jahon hamjamiyati ko'z o'ngida namoyon bo'lishi uchun hissa qo'shish imkonini beradi.

YeI Markaziy Osiyo masalalari bo'yicha **hamfikir va boshqa manfaatdor sheriklar** bilan o'zaro tushunish va manfaatlar tutashgan sohalarda hamkorlikni rivojlantirish yo'lida maslahatlashuvlarni kuchaytiradi.

Bu sohada amalga oshirilishi lozim bo'lgan aniq tashabbuslar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- *YeI-Markaziy Osiyo oliy darajadagi siyosiy va xavfsizlik muloqoti hamda Vazirliklar darajasidagi doimiy uchrashuvlar orasida navbatdan tashqari maxsus oliy martabali mulozimlar uchrashuvini tashkil etish;*

- *Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi doirasida vazirlarning norasmiy maslahatlashuvlarini tashkil etish hamda BMT va boshqa ko'p tomonlama forumlar doirasida o'zaro tushunish va umumiy yondashuvlarni rivojlantirish;*
- *Markaziy Osiyoga taalluqli bo'lgan masalalar yuzasidan, zarur hollarda, uchinchi tomonlar bilan maslahatlashuvlarni jadallashtirish;*
- *Xususan, norasmiy "Yevropa Ittifoqi-Markaziy Osiyo forumi"ni tashkil etish orqali YeI-Markaziy Osiyo hamkorligini rivojlantirishga fuqarolik jamiyati institutlarini ko'proq jalb qilish;*
- *Parlamentlararo aloqalar va tashriflar sonining ko'payishini rag'batlantirish.*

3.2. Yuqori natija uchun hamkorlik

Yevropa Ittifoqi va unga a'zo davlatlar birgalikda so'nggi o'n yil mobaynida taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik bo'yicha Markaziy Osiyoning asosiy sheriklari qatoriga qo'shilishdi²¹. YeI mintaqani qo'llab-quvvatlash, muammolarni hal qilish va YeI-Markaziy Osiyo hamkorligi taklif qilayotgan imkoniyatlardan maksimal darajada foydalanish uchun mavjud moliyaviy vositalardan foydalanishda davom etadi. Yevropa Ittifoqining **Markaziy Osiyo bo'yicha yangi Strategiyasi** Ittifoqning mintaqqa bilan kelgusi yillardagi hamkorligi yo'nalishlarini aniqlab beradi. *Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030-yilgacha **Barqaror rivojlanish dasturi*** doirasida qabul qilingan majburiyatlarga rioya qilish Yevropa Ittifoqining mintaqadagi ishtirokining asosiy elementi bo'lib qoladi. **Fuqarolik jamiyati va mahalliy hokimiyat bilan muloqot** YeIning Markaziy Osiyoda ustuvor yo'nalishlarini belgilashga yordam beradi. **A'zo davlatlarning mintaqaga nisbatan siyosatlari bilan uyg'unlik, xususan, taraqqiyot yo'lida hamkorlik sohasida**, zarur bo'ladi.

Taraqqiyot yo'lida hamkorlikning bir o'zi bilan BRMga erishib bo'lmaydi, undan **o'sish uchun xususiy kapitalni jalb etuvchi katalizator** sifatida foydalaniladi. YeI mintaqada o'zining taraqqiyotga ko'maklashuvchi keng ko'lamlı vositalaridan imkon qadar yaxshiroq foydalanadi, xususan, birodarlashuv va sarmoyalarga eng katta urg'uni berish kabi **hamkorlikning innovatsion usullari** ular jumlasidandir. BRMga erishishga hissa qo'shuvchi qator sohalarda Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan siyosiy muloqot uchun **KShHB** qulay imkoniyatlar yaratadi.

²¹ YeI 2014-2020-yilga mo'ljallangan budjet doirasida Markaziy Osiyo bilan taraqqiyot yo'lida hamkorlik uchun 1.1 mlrd. yevro ajratdi (The EU has allocated €1.1 billion to development cooperation with Central Asia under the budget cycle 2014-2020).

Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik Markaziy Osiyoda barqaror taraqqiyot uchun davlat va xususiy sarmoyalarini jalb qilishda muhim rol o‘ynashda davom etadi.

Bu sohada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan aniq tashabbuslar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- *Muayyan sohalarda YeI-Markaziy Osiyo siyosiy muloqotlarini o‘tkazish va bu muloqotlarni birodarlashuv jarayonlari orqali qo‘llab-quvvatlash;*
- *Xalqaro moliya institutlari bilan, zarur holatlarda, hamkorlikni faollashtirish.*

3.3. Sheriklikning ma’lumotlar tizimini boyitish

Yevropa Ittifoqini Markaziy Osiyodagi profilini boyitish uchun Ittifoq va unga a’zo davlatlar yanada faol va maqsadli axborot tarqatish strategiyasini takomillashtirishlari kerak. Bunda YeI-Markaziy Osiyo sherikchiligi mintaqa va uning fuqarolari uchun olib kelishi mumkin bo‘lgan imtiyozlarni ta’kidlash hamda YeIning mintaqadagi ishtirokining zamirida turgan asl sababni ochiq bayon etish lozim. Bu, ayniqsa, umumlashgan ma’lumotlar yo‘llash va, jumladan, mintaqadagi yoshlar, ijtimoiy fikrni shakllantiruvchilar, ijtimoiy tarmoqlarda ta’sir kuchiga ega guruhlar, fuqarolik jamiyati institutlari, olimlar va ommaviy-axborot vositalari e’tiboriga yo‘naltirilgan ijtimoiy tarmoqlar va boshqa yangi axborot texnologiyalari orqali axborot tarqatish usullarini tanlashni taqozo etadi.

Bu sohada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan aniq tashabbuslar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- *Yanada umumlashgan tizimli xabarlar tarqatishni rivojlantirish va YeIning mintaqadagi ishtirokining aniq afzalliklarini ajratib ko‘rsatish uchun veb-portal va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni kuchaytirish.*

Kengash va Yevropa Parlamenti ushbu Qo‘shma Kommunikatsiyada ko‘rsatilgan yondashuv va harakatlarni ma’qullash uchun taklif qilinadi.